

Mutaxassis fikri

CONDITIO SINA QUA NON yoki bajarilmasa boʻlmaydigan shartlar

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2024-yil 2-fevralda “Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmonning qabul qilinishi mahalliy vakillik va ijro organlari oʻrtasidagi vakolatlarni taqsimlash orqali 69 ta qonun hamda 5 ta kodeksga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish masalasini kun tartibiga qoʻydi.

Davlatimiz rahbari taʼkidlaganidek, “yoʻlimizda qanday toʻsiq va qiyinchiliklar, keskin va dolzarb muammolarga duch kelsak ham, shoshma-shosharlik bilan, pala-partish qaror qabul qilishga, yaxshi oʻylab koʻrilmagan xatti-harakatlarga yoʻl qoʻyishga haqqimiz yoʻq”. Shu nuqtayi nazardan, Farmonda tavsiya etilgan turli soha yoʻnalishlariga oid oʻzgartirish va qoʻshimchalarni tahlil qilish va ular boʻyicha xulosalar berish ekspertlar jamiyatiga tegishli qonun normalarini sinchkovlik bilan oʻrganish masʼuliyatini yuklaydi.

Ushbu Farmonning 3-ilovasi “Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini” Kuchli Kengash, hisobdor va tashabbuskor hokim” tamoyili asosida tashkil etish yuzasidan qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish boʻyicha “Yoʻl xaritasi”dan iborat boʻlib, uning 1-bobida mahalliy vakillik va ijro etuvchi hokimiyati organlari oʻrtasida aniq belgilanishi nazarda tutilayotgan vazifa va funksiyalar koʻrsatib oʻtilgan.

Davlatimiz rahbarining mazkur Farmonida Oʻzbekiston Respublikasi Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksining 25-moddasi beshinchi qismini “Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari bilan belgilanadigan jarimaning eng koʻp miqdori ushbu kodeksning 6-moddasiga binoan fuqarolarga – bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan, mansabdor shaxslarga esa – besh baravaridan oshmasligi kerak”, degan norma mahalliy davlat hokimiyati vakillik va ijro organlarining biri orasida taqsimlanishi belgilangan. Qonun loyihasini ishlab chiquvchi mazkur taqsimotni amalga oshirishdan oldin tegishli munosabatlarni aniqlashtirib olish lozim. Xususan, ushbu moddaning dispozitsiyasi havola qilgan 6-modda mazkur kodeksda mavjud emas. Jarimaning eng koʻp miqdorini belgilash mahalliy davlat hokimiyati vakillik yoki ijro organlarining biri orasida taqsimlangan taqdirda ham kuchini yoʻqotgan normaga havola qilish amaliyotda turli notoʻgʻri talqinlarga sabab boʻlishi mumkin.

Farmonga asosan “Fuqarolar sogʻligʻini saqlash toʻgʻrisida”gi Qonunning 6-moddasi ham mahalliy vakillik va ijro etuvchi hokimiyat organlari orasida taqsimlanmoqda. Mazkur moddaning oltinchi xatbosida keltirilgan “farmatsevtika faoliyatining

yoʻnalishini – dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilishni litsenziyalashni belgilangan tartibda amalga oshirish” masalasi ham mahalliy vakillik yoki ijro organlaridan biriga yuklanmoqda.

2024-yilning 23-yanvarida ushbu vakolat Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Farmatsevtika sohasini tartibga solish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Farmoniga binoan Sogʻliqni saqlash vazirligi huzuridagi Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markaziga yuklatilgan. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qoʻllab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida”gi Farmonining 9-ilovasi 9-bandiga koʻra mahalliy hokimliklarga oʻtkazish mumkin boʻlgan funksiya va vakolatlarni tanlab olib, yakuniy roʻyxatni shakllantirish bilan bir qatorda ularning tayyorligini tahlil qilish masalasi ham amaliy chora-tadbir sifatida belgilangan. Fikrimizcha, dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilishni litsenziyalash masalasi sohaviy yondashuvni, professional bilim, zarur tashkiliy-texnik oʻrganishlarni taqozo etishini, qolaversa, dori vositalarining isteʼmoli bilan bogʻliq huquqni qoʻllash amaliyotini ham inobatga olib, mahalliy vakillik va ijro etuvchi organlardan biriga oʻtkazilishidan oldin, ularning bu vakolatlarni qabul qilishga tayyorligini oʻrganib tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Bu holat tizimli talhiga boʻlgan zarurati keltirib chiqaradi.

Oʻzbekiston Respublikasi “Tabiatni muhofaza qilish toʻgʻrisida”gi Qonunning 10-moddasi birinchi qismining yettinchi xatboshisi “tabiatning muhofaza qilinishi ustidan nazorat oʻrnatish, atrof-muhitga zarar yetkazayotgan mahalliy ahamiyatga molik obyektlar faoliyatini vaqtinchala yoki butunlay toʻxtatish va qayta ixtisoslashtirish toʻgʻrisida qarorlar qabul qilish” vakolatini ham mahalliy vakillik va ijro etuvchi hokimiyat organlari orasida taqsimlash vazifasi qoʻyilmoqda. Biroq modda matnidan qaysi obyektlar toʻgʻrisida gap ketayotganini aniqlashning imkoni yoʻq. Qonun loyihasini ishlab chiquvchi tomonidan ushbu obyektlar (davlat yoki nodavlat) tushunchasiga qonun matnida taʼrif berilishi maqsadga muvofiq.

Qolaversa, qonun loyihasini ishlab chiquvchi obyektlar faoliyatini vaqtinchala toʻxtatish muddati (muddat davomiyligi, vaqtinchala toʻxtatilish sabablari, sabablarni bartaraf etish omillari, qayta rasalant berish uchun asoslar)ga doir masalani aniqlashtirish lozim. Aks holda bu vaziyat “Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi toʻgʻrisida”gi Qonunning 13 va 14-moddalarida keltirilgan “diskretion vakolatlarining kengligi”, shuningdek, “vaqt chegaralarining noaniqligi”ga doir munosabatlarni shakllantirib, korrupsiyaviy omilni keltirib chiqarish ehtimoli mavjud.

Bundan tashqari, modda matnidagi “atrof-muhitga zarar yetkazayotgan mahalliy ahamiyatga molik obyektlar faoliyatini butunlay toʻxtatish va qayta ixtisoslashtirish” masalasi ham mahalliy vakillik va ijro etuvchi hokimiyat organlari orasida taqsimlanmoqda. Bu yerda qonun loyihasini ishlab chiquvchining eʼtiborini ayrim jihatlariga qaratishni lozim topdik. “Tabiatni muhofaza qilish toʻgʻrisida”gi amaldagi Qonunning 10-moddasi ikkinchi qismiga asosan “Atrof-muhitga zarar yetkazayotgan tadbirkorlik subyektlari hisoblangan mahalliy ahamiyatga molik obyektlarning faoliyatini toʻxtatib qoʻyish (favqulodda vaziyatlar, epidemiyalar hamda aholining hayoti va sogʻligʻiga atrof tabiiy muhitning normativdan ortiq darajada ifloslanishi bilan bogʻliq xavf yuzaga kelishining oldini olish maqsadida faoliyatni oʻn ish kunidan koʻp boʻlmagan muddatga toʻxtatib qoʻyish hollari bundan mustasno) yoki tugatish va qayta ixtisoslashtirish sud tartibida amalga oshiriladi”, deb mustahkamlangan.

Bitta munosabatni tartibga solishdagi ikki xil yondashuv huquqni qoʻllash amaliyotida turli tushunmovchiliklarni keltirib chiqarish ehtimoli katta. Fikrimizcha, ularni birillashtirish va mahalliy ahamiyatga molik obyektlar faoliyatini butunlay toʻxtatish va qayta ixtisoslashtirish bilan bogʻliq vakolatning sudlar tomonidan

Oʻzbekiston mintaqalari va ular oʻrtasidagi sogʻlom raqobatni rivojlantirish, shubhasiz, mahalliy davlat hokimiyati vakillik va ijro etuvchi organlari tomonidan amalga oshiriladigan funksiyalarga bevosita bogʻliq. Mazkur rivojlanish ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va kadrlar salohiyati oʻrtasidagi muvozanatni taʼminlash masʼuliyatiga rioya etish majburiyatini belgilashi sababi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida belgilangan vakolatlarni oʻtkazish bilan bogʻliq masalalarni kuchli va zaif tomonlar, imkoniyat va tahdidlar tahlini, shuningdek, tartibga solish taʼsirini baholash kabi jarayonlardan oʻtkazish zarur. Bu holat huquqshunoslar taʼbiri bilan aytganda, conditio sina qua non, yaʼni bajarmasa boʻlmaydigan shartdir.

Gulchehra MALIKOVA,

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti bosh ilmiy xodimi, yu.f.d., professor.

Mehnat va rohat



TAKRORIY EKIN – QOʻSHIMCHA DAROMAD, TOʻKINLIK MANBAI

Samarqand viloyatida bu yil gʻalla va ertagi ekinlardan boʻshagan 90,4 ming gektar yerga takroriy ekin sifatida sabzavot, kartoshka, dukkakli va ozuqa ekinlari ekish rejalashtirilgan. Ayni paytda 80 foizdan ziyod maydonda takroriy ekinlar ekib boʻlindi.

– Dastlabki hisob-kitoblarimizga koʻra takroriy ekindan viloyat boʻyicha 1 million 483 ming tonna hosil olinishi kutilmoqda, – deydi viloyat qishloq xoʻjaligi boshqarmasi boshligʻi oʻrinbosari Samad Saidov. – Uning 325 ming 987 tonnasi ichki bozorga, 82 ming 292 tonnasi eksportga va 70 ming 595 tonnasi urugʻlik va zaxiraga jamgʻariladi. Hosilni xarid qilish, qayta ishlash va eksportga yoʻnaltirish boʻyicha korxonalar bilan kelishuvlar amalga oshirildi, saqlash omborxonalari va qayta ishlash korxonalari mavsumga shay holatga keltirildi.

Qodaryo tumanida joriy yilda gʻalladan 9 ming 609 gektar va ertagi ekinlardan 38 gektar maydon boʻshadi. Tuman dehqon va fermerlari bu yerlarga toʻliq takroriy ekin ekmoqda.

– Ushbu maydonlarning 5 ming 203 gektari klaster va fermer xoʻjaliklari ixtiyorida turgan boʻlsa, qolgani fermer xoʻjaliklari ishchilari va ijtimoiy dalartlardagi fuqarolarga berildi, – deydi tuman qishloq xoʻjaligi boʻlimi boshligʻi vazifasini bajaruvchi Vohidxon Murodov. – Ushbu maydonlarga sabzavot, kartoshka, dukkakli va ozuqa ekinlari ekilmoqda. Kuzda ulardan 4 ming 250 tonna sabzavot, 9 ming tonna kartoshka, qariyb 7,5 ming tonna dukkakli don hosili olinishi kutilmoqda. Yetishtirilgan sabzavot va kartoshka, asosan, ichki bozorga yoʻnaltirilsa, dukkakli mahsulotning 90 foizdan ortigʻi eksport qilinadi.

Tumaning Amir Temur massivida ham 431 gektar gʻalladan boʻshagan maydonda takroriy ekin ekilmoqda. Hozir hududning aksariyat qismida ekin ekilayotgan boʻlsa, boshqa dalalarda yerni tayyorlash ishlari olib borilyapti.

– Xoʻjaligimizning suvli va gʻalladan boʻshagan 10 gektar yer maydoniga takroriy ekin ekyapmiz, – deydi “Parda bobo chorva omad” fermer xoʻjaligi ish boshqaruvchisi Ayubjon Pardayev. – Ishchilar bilan birgalikda 6 gektarga dukkakli ekinlar ekib va mahsulotni xarid qilish borasida “Pichokchi dry fruits” MChJ bilan shartnoma tuzdik. Qolgan 4 gektarni mahallamizdagi vaqtincha ishsiz, ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarga ajratdik.

Oqdayoliq Suhrob Temirov maktabni bitirgach, bir necha yil turli ishlarda oʻzini

sinab koʻrdi. Oilaning yagona boquvchisi boʻlgan Suhrob onasining maslahati bilan erta bahorda yoshlar bandligini taʼminlash maqsadida ajratilayotgan yer maydonidan olish uchun ariza topshirgandi. Davlatimiz rahbarining shu yil 5-apreldagi “Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini taʼminlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini oʻlashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori asosida “mahalla yettligi” tavsiyasi bilan unga 47 sotix yer ajratildi.

– Bahorda ekan kartoshkamizdan 15 tonna hosil oldik, – deydi S. Temirov. – Hosilning bir qismini sotib, oilamiz ehtiyojiga ishlatdik. Takroriy ekinga loviya ekkid. Chunki hosili yaxshi, xaridori tayin. Umuman, ajratilgan yer maydoni dastlabki yildan turmushimizni yaxshilashga xizmat qilmoqda. Avvallari ish qidirib sarson edik, endi oʻz yerimizda oilamiz farovonligi uchun mehnat qilapmiz.

Viloyat qishloq xoʻjaligi boshqarmasi maʼlumotlariga koʻra oʻtgan yili aholiga 7,5 ming gektar yer ajratilib, 18,4 ming nafar fuqaro dehqon xoʻjaligi tashkil etgan. Joriy yilda esa 8,3 ming gektar yer maydonida 15,3 ming dehqon xoʻjaligi tashkil etildi va 30 mingta ish oʻrni yaratildi.

– Prezidentimizning joriy yil 18-yanvarda qabul qilingan “Qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yer uchashtalarini ijaraga berish tartibini takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Farmoniga muvofiq har bir tumandan 100 gektar, viloyat boʻyicha 1,3 ming gektar yer zaxiraga olinib, dehqon xoʻjaliklari tashkil etildi, – deydi viloyat qishloq xoʻjaligi boshqarmasi shu-ba boshligʻi Tohir Duvlanov. – Ushbu maydonlarda “Bir mahalla – bir mahsulot” tamoyili asosida eksportbop hamda serhosil qishloq xoʻjaligi ekinlari ekildi.

Shuningdek, 7 ming gektar yer maydoni ijtimoiy dalartlarga kiritilgan fuqarolarga “mahalla yettligi”ning xulosasiga asosan “E-auksion” elektron savdo platformasi orqali ajratildi. Bu viloyatdagi 17 mingdan ziyod yoshlarning daromadini oshirish va bandligini taʼminlashga xizmat qiladi. Ushbu yer maydonlarida 135 ming tonna mahsulot yetishtirilishi kutilmoqda.

Abdullaziz YOʻLDOSHEV (“Xalq soʻzi”).

XABARDORLIK

ODAM SAVDOSIDAN ENG YAXSHI HIMOYA



Aksariyat zamonaviy kishilarning tasavvurida odam savdosi qadimgi dunyoga xos boʻlgan yoki qullar mehnatidan foydalanish ehtiyojini ortga qaytargan buyuk geografik kashfiyotlar va yangi yerlarni mustamlaka qilish davriga mansub anaxronizm hisoblanadi. Afsuski, bugun ham erksizlik holati va ekspluatatsiya, majburiy mehnatdan foydalanish va odam savdosi tez-tez uchrab turibdi.

Tahlil

Shu bois keyingi yillarda dunyoda odam savdosiga qarshi kurashishga va ushbu jarayonga davlat organlari, xalqaro va jamoat tashkilotlarini jalb qilishga katta eʼtibor qaratilmoqda. Dunyoning koʻplab mamlakatlarida odam savdosining oldini olish, aholining ekspluatatsiya bilan bogʻliq jinoyatlar turlari toʻgʻrisida xabaradorligini oshirishga qaratilgan saʼy-harakatlar kengaymoqda. Odamfurushlarni jinoiy javobgarlikka tortish va ular qurbonlarining fuqarolarini himoya qilish uchun zarur boʻlgan qonunlar qabul qilinmoqda, xalqaro hamkorlik va xoritot almashinuvi darajasi ortmoqda.

Maʼlumki, 2013-yil dekabr oyida BMT Bosh Assambleyasi Butunjahon odam savdosiga qarshi kurashish kuni (World Day against Trafficking in Persons) toʻgʻrisidagi rezolyutsiyani qabul qildi va bu kun dunyo boʻylab har yili 30-iyulda nishonlanadi. Sana tasodifan tanlanmadi: 2010-yili aynan shu kuni BMT tomonidan odam savdosiga qarshi kurashish boʻyicha Global harakatlar rejası qabul qilingan edi. Dunyo mamlakatlari aholisining odam savdosiga qarshi kurashish toʻgʻrisidagi xabaradorligini oshirish maqsadida BMT jamoatchilik eʼtiborini bu muammoga qaratish hamda odam savdosi va ekspluatatsiyasidan jabrlanganlarni qoʻllash maqsadida “Moviy yurak” (Blue heart) kompaniyasini tashkil etdi.

Oʻzbekistonda ham odam savdosiga qarshi kurashish davlat siyosati darajasiga koʻtarilgan. Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Yangi Oʻzbekiston – xalq irodasini ifoda etadigan ijtimoiy davlat” gʻoyasiga asoslangan siyosiy irodasi tufayli davlat va jamiyatning siyosiy-huquqiy asoslarini mustahkamlash, shuningdek, ushbu jarayonlarda inson huquqlari tizimini yanada mustahkamlashga qaratilgan keng koʻlamli islohotlar olib borilyotir.

“Ijtimoiy fikr” respublika jamoatchilik fikrini oʻrganish markazi odam savdosi va uning mamlakatimizda tarqalganlik darajasini va vatandoshlarimizning chet elda odamfurushlar toʻriga tushib qolish xavfini baholash bilan bogʻliq muammolar boʻyicha kompleks monitoring tadqiqotlarini muntazam ravishda oʻtkazib kelmoqda.

Tadqiqot natijalari ham shuni tasdiqlaydiki, “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar odam savdosiga qarshi kurashish va uning salbiy oqibatlarining oldini olish borasidagi vaziyatga ijobiy taʼsir koʻrsatmoqda, jinoyatchilikning bu turi oʻsishini kamaytirish, odam savdosidan jabrlanganlarga yordam koʻrsatish imkonini berish bilan birga, mamlakatda ham, chet elda ham ularning huquqlarini himoya qilishga koʻmaklashmoqda, shuningdek, jamiyatda yuzaga kelgan mazkur jinoyatlar bilan bogʻliq xavf-xatarlar borasidagi

stereotiplarga barham berishda qoʻl kelmoqda.

Respondentlar odam savdosi bilan bogʻliq jinoyatlar fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini buzadi, ularning hayotini xavf ostiga qoʻyadi, shahni va qadr-qimmatini kamsitadi, erkinlikdan mahrum etadi hamda jabrlanganlarni jismoniy va ruhiy salomatlikka tahdid soladigan sharoitlarda qullik mehnatiga majbur qiladi, deb hisoblaydi. Ular odam savdosini mamlakat, jamiyat va har bir fuqaro uchun jiddiy ijtimoiy tahdid, deb biladi.

Jamoatchilik fikri soʻroviga koʻra, odam savdosi haqida maʼlumotlar hajmi oshib borishi va ulardan foydalanish yanada qulayroq boʻlayotgani sababli odam savdosining asosiy yoʻnalishlari va ekspluatatsiyaning turli shakllari bilan bogʻliq jinoyatlar va ushbu turdagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashish chora-tadbirlari toʻgʻrisida mamlakat aholisining xabaradorlik darajasi oʻsib bormoqda. 81,2 foiz fuqarolarning qullikning zamonaviy shakllari hamda inson aʼzolari yoki toʻqimalarini noqonuniy olib sotish bilan bogʻliq jinoyatlardan xabaradorligi ham buni tasdiqlaydi. Zero, bu jinoyatdan xabarodirlik oshishi undan himoyalanişda eng yaxshi yechimdir.

Soʻrov natijalari ham aholi bir qismining odam savdosi muammolari haqida xabarodirlik darajasi pastligining asosiy sabablari qatoriga ushbu muammoni yetarlicha tushunmaslik kirishini koʻrsatdi. Respondentlarga koʻra, ayrim fuqarolar hozirgi kunda odam savdosi butun dunyo boʻylab juda keng soʻlamda tarqalganini, u katta ijtimoiy xavf tugʻdirishini va insoniyat oldiga globallashuv qoʻygan yangi tahdid ekanini toʻliq anglamaydi.

Ishtirokchilarning fikricha, ommaviy axborot vositalari mamlakatimiz va xorijdagi odam savdosiga qarshi kurashish masalalarini muntazam hamda tizimli ravishda berishi, fuqarolarning odamfurushlar toʻriga tushib qolishi xavfini kamaytirishga qaratilgan axborot loyiholari va dasturlarni yaratish ustida ishlashi va bu jarayonlarni toʻliq yoritib borishi kerak.

Tadqiqot natijalari odam savdosining tipik belgilari va odamlarni yollash usullari, odam savdosidan jabrlanganlar muammolari va inqirozli vaziyatlarda oʻzini himoya qilish yoʻllari toʻgʻrisida, ayniqsa, Oʻzbekistondan tashqarida ishga joylashishda muayyan xavf-xatar yuzaga kelishi ehtimolidan xabarodir qilish va ularning oldini olish boʻyicha ixtisoslashtirilgan tadbirlar oʻtkazish zarurligini koʻrsatmoqda. Respondentlarning fikriga koʻra, fuqarolarni xabarodir qilish ishiga odam savdosidan jabrlanganlarni jalb qilish muhim, chunki ularning shaxsiy tajribasi jamiyatda mavjud boʻlgan stereotiplarni oʻzgartirishga sezilarli taʼsir koʻrsatishi mumkin.

Tadqiqot davomida olingan maʼlumotlar shuni koʻrsatdiki, fuqarolar ommaviy axborot vositalarining odam savdosiga qarshi kurashish toʻgʻrisida aholini xabarodir qilish borasidagi maʼrifiy faoliyati toʻgʻrisida turlicha fikrda. Bu muammo ommaviy axborot vositalarida yoritilishi holatidan toʻliq qoniqadigan fuqarolarning ulushi 48,4 foizni tashkil qildi.

20,7 foiz respondentlar fikriga koʻra, ommaviy axborot vositalari odam savdosi bilan bogʻliq muammolar va holatlarni “oʻrtacha darajada” yoritmoqda. Ushbu toifadagi fuqarolar uchun mazkur axborotlar dolzarb va zarur hisoblanadi,

ular migratsiya jarayoni bilan bogʻliq ehtimoliy xavf-xatarlar, odam savdosidan jabrlanganlar duch kelgan voqealar toʻgʻrisida, qullikka tushib qolganlarga yordam berish va ularni qoʻllab-quvvatlash, reabilitatsiya qilish va normal hayotga qaytarish bilan shugʻullanadigan tashkilotlar haqida yangilangan maʼlumotlarni olishni xohlashadi.

Ommaviy axborot vositalarida odam savdosining yoritilishidan qoniqmagani respondentlarning ulushi 22,9 foizni tashkil etdi. Ularning fikricha, mamlakat ommaviy axborot vositalarida yurtimizda noqonuniy ekspluatatsiya va odam savdosi bilan bogʻliq jinoyatlarning oldini olish borasidagi chora-tadbirlar, ehtimoliy jabrlanuvchilarni yollash bilan bogʻliq xavf-xatarlar, zamonaviy qulfurushlar toʻriga tushib qolganlarga yordam berish uchun koʻrilishi kerak boʻlgan choralar haqidagi maʼlumotlar yetarlicha emas.

Fuqarolar fikriga koʻra, 35 yoshgacha boʻlgan yoshlar, erkaklar va xotin-qizlar asosiy xavf guruhları hisoblanishadi, binobarin, ular boshqalarga qaraganda koʻproq mehnat qobiliyatiga, safarbarlikka egaligi va hayotiy tajribasi yetishmasligi bois koʻpincha odam savdosi va ekspluatatsiyasining nishoniga aylanadi. Shuningdek, ijtimoiy nochor va toʻliqsiz oilalardagi goʻdaklar ham xavf guruhiga tushib qolmoqda.

Yurtidoshlarimizning odamfurushlar toʻriga tushib qolishida javobgarlik ular oilasiga, oʻz farzandi munosib taʼlim-tarbiya olishini taʼminlamagan hamda talab yuqori boʻlgan kasbni egallashiga yordam bermagan, aksincha, chet elda ishlash toʻgʻrisidagi shubhali taklif, noqonuniy mehnat migratsiyasiga

farzandlarining rozi boʻlishiga yoʻl qoʻyib bergan ota-onalar zimmasiga tushadi. Bunga 46,6 foiz respondentlar qoʻshilgan. Fuqarolarning mehnat yoki boshqa turdagi ekspluatatsiyaga tushib qolishlari uchun javobgarlikni odam savdosidan jabrlanganlarning oʻzlariga yuklaydiganlar ulushi 44 foizdan iborat. 20,5 foiz ishtirokchi esa davlat oʻz fuqarolari uchun javobgardir, u fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishi, jinoyatlarning oldini olishi va ularga barham berish, oʻzbekistonliklar uchun noqonuniy mehnat migratsiyasiga tushib qolish xavfini va mamlakatimizdan tashqarida noqonuniy ishga joylashishni minimallashtirishga harakat qilishi kerak, deb hisoblaydi.

Umuman, 76,8 foiz oʻzbekistonliklar jinoyat sodir etilishiga yordam beradigan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish boʻyicha davlatimiz tomonidan koʻrilayotgan chora-tadbirlarni ijobiy baholagan. Ayni chogʻda ular yuzaga kelayotgan yangi tahdidlar sharoitida bu boradagi ishlarni yanada kuchaytirish zarur, deb biladi.

Tadqiqot chogʻida yurtidoshlarimiz odam savdosi muammosining oldini olish, uni aniqlash va bartaraf etish uchun davlat organlari va xalqaro tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari va oddiy fuqarolarning saʼy-harakatlarini birlashtirish kerakligini ham urgʻulashgan. Zero, bugun dunyoning aksariyat mamlakatlarida keng tarqalgan jinoyatning ushbu turiga qarshi kurashish faqat hamijihatlikda olib borilgandagina oʻz samarasini beradi.

Nigina RAHIMOVA, “Ijtimoiy fikr” respublika jamoatchilik fikrini oʻrganish markazi direktori, iqtisodiyot fanlari doktori.

Buxoro viloyatining “Olot” chegara postiga tutash hududda zamonaviy logistika markazi ish boshladi.

SAN'AT – XALQLARNING MADANIY ALMASHINUVI VA MA'NAVİY BIRLIGIGA KO'PRIK

Belarus Respublikasi O'zbekistonning sharqiy Yevropadagi strategik hamkorlaridan biridir. Buni keyingi yillarda ikki mamlakat o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlarning sifat jihatdan yangi va yanada yuqori bosqichga ko'tarilganidan ham yaqqol sezish mumkin.

Yaqinda Belarus tomoni Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT)ga a'zo mamlakatlar ommaviy axborot vositalari vakillari uchun press-tur uyushtirdi. Mazkur tadbir doirasida nafaqat qator sanoat korxonalarida bo'lib, respublikaning real iqtisodiy imkoniyatlari bilan tanishishga, balki har yili an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan "Slavyan bozori" XXXIII xalqaro san'at festivalida qatnashishga ham muvaffaq bo'ldik.

Maxsus reportaj

Nufuzli musiqa festivali har yili besh mingdan ortiq mehmonlar hamda ishtirokchilarni atrofiga jalb qilishi va o'zaro madaniy aloqalarni yanada mustahkamlashi bilan ham g'oyat ahamiyatli hisoblanadi. Mazkur festival bugungi kunda slavyan dunyosining chegaralarini kesib o'tdi. Joriy yil bu yerga 42 davlat vakillari, jumladan, 500 dan ortiq ommaviy axborot vositalari xodimlari jam bo'ldi. Festivalga ilk bor ShHTga a'zo davlatlar OAV xodimlari uchun tashkil etilgan press-tur ishtirokchilari – Xitoy, Rossiya, O'zbekiston, Eron, Qozog'iston, Qirg'iziston kabi davlatlar jurnalistlari ham tashrif buyurdi.

Darvoqe, yaqinda Belarus Respublikasi rasmiy ravishda ShHTning do'stona oilasiga qo'shildi va tashkilotning o'ninchi a'zo davlatiga aylandi. ShHT shafeligida Belarusda o'tkazilgan ilk tadbirlardan biri xalqlarning madaniy almashinuvi va ma'naviy birligiga bag'ishlangani ramziy ma'noga ega, albatta. "Vitebskdagi slavyan bozori – 2024" xalqaro festivali doirasida ilk bor "ShHT bilan birgalikda tinchlik va bunyodkorlik uchun" Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar milliy madaniyatlarini kuni ham bo'lib o'tdi.

Ijodiy izlanish va sivilizatsiyalar mulqoti

Ma'lumotlarga ko'ra festival doirasida har yili 150 dan ortiq tadbirlar o'tkaziladi. Bular bolalar va estrada xonandalari o'rtasidagi xalqaro musiqa tanlovlari, "Yeti shamolda" ko'cha san'ati hamda "Slavyan Blagovest" xor musiqasi festivali, "Ustalar shahri" yarmarkasi, kino namoyishlari, teatr premyeralari, badiiy ko'rgazmalar, konsertlar shular jumlasidandir.

Hafta davomida Vitebskning butun tarixiy markazi, xususan, Yevropadagi eng katta G'alaba maydoni festival bilan birga yashaydi. "Vitebsk" yozgi amfiteatr va konsert zalida turfa musiqiy tadbirlar bo'lib o'tadi, turli qit'alaridan kelgan ishtirokchilar bir-biriga hamrohlik qilib, ochiq havoda konsertlar uyushtirishadi. Afrika nog'oralari rus skripka uyg'un jarang sochadi.

Festivalning ramzi – mo'rt ko'k jo'xori guli. Cheksiz Belarus dalalarining bu rezidenti ko'rinishidagi gulchambarlar, sirg'alar va nishonlar festival mehmonlarining bayramona ko'rinishining majburiy atributidir. Uni kiyimlariga tabassum bilan bog'lab, turli mamlakatlardan kelgan odamlar do'stona bir oila a'zolariga aylanishadi. Ularni musiqa hamda san'atga muhabbat, bir-birining an'ana va urf-odatlarini hurmat qilish birlashtirib turadi.

Yozgi amfiteatrdagi festivalning ochilish marosimi va unga bag'ishlangan katta konsert tadbirning asosiy mazmunini tashkil etdi. An'anaga ko'ra Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko festivalda qatnashib, nutq so'zladi.

Davlat rahbari ta'kidlaganidek, san'at mamlakatlar o'rtasidagi tinchlikni, o'zaro hamjihatlikni yanada mustahkamlaydi. Ushbu festivalning falsafasi ana shu g'oya asosida belgilab olingan va u chuqur ildizlarga ega. Bu yerda, Dvinaning go'zal qirg'og'ida, 1050-yil oldin shaharning birinchi toshi qo'yilgan bo'lib, u bugungi kunda haqli ravishda mamlakat madaniy poytaxti hisoblanadi. Belarusning bu burchagida asrlar davomida tasviriy san'at durdonalari, noyob me'moriy obyektlar, ajoyib adabiy va musiqa asarlari, shuningdek, festivalar, tanlovlar hamda boshqa ko'plab ijodiy loyihalarni yaratishga ilhomlantirgan muhit bor. Asrlar davomida bu yerda ijodiy izlanish va sivilizatsiyalar mulqoti muhiti yaratilgan.

Darhaqiqat, Vitebsk shahri Ilya Repin, Kazimir Malevich va Mark Chagall kabi dunyoga mashhur rassomlarni ijodiy durdonalar yaratishga ilhomlantirgan. Bu yerda bolalar yozuvchisi Lazar Lagin, Nobel mukofoti laureati, fizik Jores Alferov kabi ko'plab taniqli shaxslar tug'ilgan.

Yurtdoshimiz – xalqaro tanlov g'olibi

Festival mehmonlarga ko'plab kutilmagan sovg'alarni taqdim etdi. Ulardan biri O'zbekiston aholisini, ayniqsa, xursand qildi, desak, mublag'a bo'lmaydi.



Forum tarixida ilk bor "Vitebsk" xalqaro bolalar musiqa tanlovining Gran-prisini mamlakatimiz vakili Yasmina Husniddinova qo'lga kiritdi.

Belarus Prezidenti unga mukofotni topshirdi. Hakamlar hay'ati raisi, taniqli qo'shiqchi, Moskva davlat madaniyat instituti o'qituvchisi Eteri Beriashvili ning ta'kidlashicha, hakamlar hay'ati a'zolari Gran-prini kinga topshirishni bir ovozdan hal qilishgan.

– Yosh xonandaning vokal va badiiy mahorati, fe'l-atvori, tirishqoqligi, noyob iqtidori meni lol qoldirdi. Bunday iste'dodning shakllanishida ustozlari Madina Abdubekovaning hissasi katta, – dedi u.

Yasmina Xusniddinova 2013-yilda tug'ilgan. Toshkent shahridagi Tolibjon Sodiqov nomidagi 1-bolalar musiqa va san'at maktabining 3-sinfida o'qiydi. U bir necha marotaba xalqaro hamda respublika tanlovlari sovrindori bo'lgan. Festivalda u o'zbek xalq qo'shig'ini zamonaviy oranjirovkada ijro etgani bilan tomoshabinlarni maftun qildi.

– Yasmina O'zbekistonda milliy saralash bosqichida g'oliblikka erishdi. U juda jiddiy tanlovdan o'tib, "Vitebsk" bolalar musiqa tanlovining 14 nafar ishtirokchisidan biriga aylandi, – deydi festivalning O'zbekistondagi rasmiy vakili, "Zarafshon" konsert zalining badiiy rahbari Olga Ivannikova. – U katta salohiyat va iqtidorga ega qiz, sahnada o'zini tabiiy his qiladi, yuqori professional darajada qo'shiq kuylaydi, a'lo intonatsiyaga ega, musiqani his eta oladi. Uning g'alabasidan xabar topganimizda juda shodlandik. Bunday yirik xalqaro tanlovning Gran-prisi yosh vokalchi uchun ulkan yutuq. Bu bilan u o'z Vatani sharafini ulug'ladi, jahon hamjamiyati oldida O'zbekistonning, o'zbek yoshlarining obro'-e'tiborini yuksaltirdi. Shuningdek, o'zbekistonlik yana bir ishtirokchi xonanda Salima ham muvaffaqiyatli ishtirok etdi. Milliy an'analarni asrab-avaylashdagi

yuksak mahorati uchun u "Mir" MTRKning "Qo'shiq – hamjihatlikka yo'l" maxsus mukofotiga loyiq ko'ridi.

Birgalikda – biz kuchmiz!

"Vitebskdagi slavyan bozori – 2024" festivali doirasida Belarus va xorijiy mamlakatlardan minglab faol va iqtidorli yoshlarni birlashtirgan Yoshlar kunlari ham yuqori saviyada o'tkazildi. Bu yerda ShHT makonida yoshlar hamkorligi istiqbollari keng muhokama qilindi.

– Bizga yaqin do'st davlatlar, jumladan, O'zbekiston vakillari festivalning yoshlar dasturiga faol qo'shilayotganidan mamnunmiz, – dedi "Belarus" jamoat



birlashmasi Markaziy qo'mitasi birinchi kotibi, Respublika yoshlar ittifoqi raisi Aleksandr Lukyanov. – Bu yil Toshkent shahri "MDH yoshlar poytaxti" deb e'lon qilindi. Sharq va Markaziy Osiyo durdonasi birinchi daqiqualardanoq o'ziga rom etadi. Yaqinda O'zbekistonda Butunjahon yoshlar festivali bo'lib o'tdi. Unda Belarusning katta delegatsiyasi ham qatnashdi. Yigitarimiz

qadimiy shaharlar, sivilizatsiya markazlari – Samarqand va Buxoro bilan yaqindan tanishdi.

ShHT davlatlari bilan hamkorlik formatida O'zbekiston yoshlari doim bizning ishonchli sherigimiz hisoblanadi. Mamlakatingiz Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlik qilishdan mamnunmiz, tashkilot bilan yaqin do'stlik aloqalari va qo'shma loyihalarimiz mavjud.

Poytaxtda Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan barpo etilgan muhtasham G'alaba bog'ida bo'ldik. Bu yoshlar va xorijlik mehmonlar uchun diqqatga sazovor joy bo'lib, O'zbekistonning fashizm ustidan qozonilgan Buyuk g'alabaga qo'shgan hissasini yaqqol aks ettiradi. Yoshlar buni yodda tutib, tinchlik va butun insoniyat farovonligi yo'lida birlashishlari kerak. Belarus va O'zbekiston yoshlari yelkama-yelka bu yo'lida ketayotganidan xursandman. Birgalikda – biz kuchmiz!

Insonlarni jipslashtiruvchi universal "til"

"Vitebskdagi slavyan bozori" xalqaro san'at festivalining yana bir muhim voqeasi – ShHTga a'zo davlatlar madaniyat vazirlari yig'ilishi bo'lib, unda o'n ta mamlakat vakillari qatnashdi. Tadbirda Shanxay hamkorlik tashkiloti Bosh kotibi Chjan Min so'zga chiqdi.

integratsiyani jadallashtirish uchun madaniyatdan "yumshoq kuch" sifatida foydalanish zarurligiga aminmiz. Yaqinda qabul qilingan Ostona deklaratsiyasiga a'zo davlatlar ShHT makonida tinchlik, hamkorlik, farovonlik va totuvlikni mustahkamlashning muhim omili sifatida madaniy hamkorlikni kengaytirishni bir ovozdan qo'llab-quvvatladi.

Belarus Respublikasi madaniyat vaziri Anatoliy Markevich o'z chiqishida mamlakatining tashkilot hududida madaniy muloqotni rivojlantirishdagi asosiy vazifalari haqida to'xtaldi. Jamiatning ma'naviy asoslarini mustahkamlash, vatanparvarlik tuyg'usini singdirish, an'anaviy qadriyatlarni madaniy vositalar orqali ommalashtirish shular jumlasidan. Respublika ShHT davlatlariga Belarusning yetakchi ijodiy universitetlarida mutaxassislar tayyorlash, xalqaro tanlovlar, festivallar va plenarlarda ishtirok etish, hamkor davlatlarning ijodiy tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashni taklif qilishga tayyorligi qayd etildi. 2025-yilda Minskda xalqaro yoshlar madaniy forumini o'tkazish tashabbusi ham e'lon qilindi.

Tadbirda O'zbekiston madaniyat vazirining birinchi o'rinbosari Avaxxon Tojixonov qatnashib, mamlakatimiz va Belarus Respublikasi o'rtasidagi so'nggi yillarda faollashgan samarali madaniy hamkorlik haqida batafsil to'xtaldi. Uning qayd etishicha, 2024-2025-yillarda Belarusda O'zbekiston madaniyati kunlari va mamlakatimizda esa Belarus madaniyati kunlarini tashkil qilish rejalashtirilgan.

– ShHT mamlakatlari madaniy an'analarning xilmaxilligi o'zaro anglashuv va ishonchli mustahkamlash uchun bebaho imkoniyatlarni o'zida mujassamlagan, – dedi u. – Madaniyat – dunyo xaritasida kelib chiqishi va o'rnidan qat'i nazar, biz gapiradigan universal til. Bu bizning o'ziga xosligimizni aks ettiradi va shu bilan birga, bizni umumiy qadriyatlar – insonparvarlik, bag'rikenglik, hamjihatlik tushunchalari atrofida yanada jipslashtiradi.

Qayd etish joizki, madaniyatlar mulqoti nafaqat bilim hamda tajriba almashish, balki yanada uyg'un va barqaror dunyo yaratish uchun ham muhim asosdir. Madaniyat ShHTga a'zo mamlakatlarni xalqlarimiz ravnaqi yo'lida bog'lovchi ko'priklarni qolishi uchun hamkorlikni davom ettirish katta ahamiyatga ega.

Rahim SHERQULOV

("Xalq so'zi").

Toshkent – Minsk – Toshkent

РЕКЛАМА

O'zbek milliy kurashi dunyoga yuz tutmoqda

Ayollar o'rtasidagi kurashda bosh sovrinni yurtdoshimiz Pokizaxon Kamoliddinova qo'lga kiritdi. Ikkinchi va ikkita uchinchi o'rinlarni mos ravishda germaniyalik Aylin Mill, belgiyalik Viktoriya Boloxan va ruminiyalik Kacharina Kalyujnaya egalladi.

Erkaklar o'rtasida kechgan murosasiz bahslarda O'zbekiston vakili Muhsin Xisomiddinov barcha raqibi kuragini yerga tekkitib, turnir g'olibligini tantana qildi. Ikkinchi va ikkita uchinchi o'rinlar ruminiyalik Iliye-Daniel Natea, o'zbekistonlik Muhammadkarim Xurramov va polshalik Kasper Schurovskiyga nasib etdi.

Tadbir sport bellashuvlari bilan cheklanmasdan, uning doirasida O'zbekiston va Italiya san'at ustalari tomonidan madaniy dastur taqdim qilindi. Shuningdek, o'zbek milliy hunarmandchilik mahsulotlari burchagi tashkil etildi.

Mazkur musobaqa Italiya ommaviy axborot vositalarida ham katta qiziqish uyg'otdi. Jumladan, ushbu mamlakatning yetakchi "Il Messaggero", "Il Metropo-litano", "Nova News", "Il Giornale d'Italia" gazetalarini va Latsio viloyatining "Lazio TV" telekanalida turkum materiallar e'lon qilindi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, Osiyo Olimpiya kengashining 36-Bosh assambleyasida Kurash milliy sport turi tarixida ilk bor 18-yozgi Osiyo o'yinlari dasturiga kiritilgan.

Shu bilan birga, 2023-yildan boshlab, O'zbekiston kurash federatsiyasi tashabbusi bilan Xalqaro kurash assotsiatsiyasi kalendari rejasiga O'zbekiston Prezidenti sovrini uchun jahon professional seriyasi (WORLD SERIES PRO) xalqaro turniri o'tkazilishi kiritilib, dunyoning barcha qit'asida muntazam tashkil etib kelinmoqda.

"Dunyo" AA.
Rim

ABITURIYENTLAR DIQQATIGA!



TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

HAMKORLIGIDA TASHKIL ETILGAN

TDIU-MOLIYA UNIVERSITETI QO'SHMA TA'LIM DASTURI

2024/2025 O'QUV YILI UCHUN QUIYIDAGI BAKALAVRIAT TA'LIM YO'NALISHLARIGA TO'LOV-KONTRAKT ASOSIDA QABUL E'LOV QILADI:

№	Shifr	Ta'lim yo'nalishlari/ mutaxassislilklari nomi	Jami
BAKALAVRIAT, KUNDUZGI TA'LIM SHAKLI			100
1	60410200/38.03.01	Buxgalteriya hisobi	50
2	60410300/38.03.01	Soliqlar va soliqqa tortish	50

Ta'lim tili: RUS TILI; Ta'limning davomiyligi: 4 yil.
HUJJATLAR 2024-YILNING 1-AVGUST – 15-SENYABR KUNLARI DAVOMIDA QABUL QILINADI.

ABITURIYENTLAR ONLAYN TIZIMIDA <https://sf-tsue-pgu.uz/>– SAYTI ORQALI HUJJATLARINI TOPSHIRISHLARI MUMKIN.

CALL-XIZMAT telefon raqamlari: 71-245-42-43; 71-239-01-59; 71-239-28-79; 71-239-28-77; 71-234-01-36.

"2+2" qo'shma ta'lim dasturini muvaffaqiyatli yakunlagan bitiruvchiga Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti diplomlari beriladi.



ROSSIYA FEDERATSIYASI HUKUMATI HUZURIDAGI MOLIYA UNIVERSITETI

Kirish imtihonlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-iyuldagi 421-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi va xorijiy hamkor oliy ta'lim tashkilotlarining qo'shma ta'lim dasturlari asosida ta'lim faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom" talablariga muvofiq quyidagi ikki bosqichda o'tkaziladi:

birinchi bosqichda – universitet tomonidan ishlab chiqilgan qabul qilish tartibiga muvofiq muayyan fanlardan kirish imtihonlari o'tkaziladi;

ikkinci bosqichda – universitetning buyurtmasiga muvofiq oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi (keyingi o'rinlarda – BMBA) tomonidan kelishilgan muddatlarda qo'shma ta'lim dasturida o'qitish olib boriladigan chet tilidan test sinovi o'tkaziladi.

Andijon davlat tibbiyot institutining ilg'or o'quv jihozlari va texnologiyalar bilan ta'minlangan yangi barpo etilgan o'quv binosi foydalanishga topshirildi.

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-742. 14 275 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:

100066,

Toshkent shahri,

Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.

Navbatchi muharrir A. Soyibnazarov.

Musahhih S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:

Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 22.50 Topshirildi – 02.50

1 2 3 4 5 6